

YUSUF XOS HOJIB 11 sinf

XI asr

	SAVOL	JAVOB
1.	Kim jahonning ulug' adiblari bilan bir qatorda turadigan, jahondagi ijtimoiy-siyosiy hamda badiiy-estetik afakkur tarixi va taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan ijodkordir.	Yusuf Xos Hojib
2.	Adibning nodir iste'dodi natijasi bo'lgan qaysi asari faqat XI asrning emas, balki butun turkiy adabiyot tarixining ham eng nodir va porloq badiiy durdonasidir.	«Qutadg'u bilig»
3.	Qaysi asar yozma adabiyotimiz tarixidagi ilk yirik asar namunasidir. Yusuf Xos Hojib bu bilan turkiy o'g'itnoma – didaktik yo'nalishni nihoyatda yuqori darajaga olib chiqdi.	«Qutadg'u bilig»
4.	Yusuf Xos Hojib tug'ilgan joyni ayting.	Quz O'rdu deb ko'rsatgan. Bu manzil qadimgi Yettisuvning markazi – Bolosog'unning ko'plab nomlaridan biridir. Hozirgi Qirg'izistonning To'qmoq shahri yaqinida uning xarobalari saqlanib qolgan.
5.	Bolosog'undan Qashqarga ko'chib borgan.	Yusuf Xos Hojib
6.	Yusuf Xos Hojib Qutadg'u bilig asarini qayerda tugatadi adibning Yoshi nechada bo'ladi?	Qoshg'arda tugatadi 50 yoshdan oshgan bo'ladi
7.	(«Tegurdi manga algi ellik yashim») bo'lgan. Har holda u «(qora) quzg'un tusiteg boshim (sochlarim) qug'u (oqqush)» bo'ldi deb ta'kidlaydi. Yana bir o'rinda «O'ttiz (yosh) yiqqanlarini ellik (yosh) qaytarib oldi, agar oltmish (yosh) qo'l tegizsa, nimalar qilar ekan?» degan adib kim?	Yusuf Xos Hojib
8.	Kitob so'ngida ilova qilingan qasidalarda ham qiziqarli ma'lumotlar saqlanib qolgan. Shu ma'lumotlar aytib bering?	(«Tugal o'n sakkiz ayda aydim bu so'z»), yozib tugatilgan

		sana («Yil altmish eki erdi to‘rt yuz bila»), shuningdek, o‘z nomining keltirilishi («E Yusuf, kerak so‘zni so‘zla ko‘ni», ya‘ni «Ey Yusuf, kerak so‘zni ro‘yi rost so‘zla») shu siraga kiradi.
9.	Asar qancha vaqtda tugatilganini aytgan edi	18 oyda
10.	Asarning umumiy hajmi qancha?	olti ming olti yuz baytdan ortiq bo‘lgan
11.	Qaysi asar Tabg‘achda yozib tugallanadi?	“Qutadg‘u bilig” 1 yarim yilda
12.	Qutadg‘u bilig asari kimga taqdim etiladi?	Tavg‘ach ulug‘ Bug‘roxonga tortiq qilinadi.
13.	Qutadg‘u bilig asari uchun adibga qanday lavozim beriladi.	Buning evaziga esa u xos hojiblik lavozimi bilan taqdirlanadi.
Qutadg‘u bilig asari		
14.	Jahonda bilag‘on, dono bek boshliq bo‘lgan edi, U(ning) beglig(i) davrida olam yasharib ketdi. Qilmishlari to‘g‘ri va fe‘l-u raftori rost, Tili chin, yetuk hamda ko‘zi va ko‘ngli boy (edi). Bilimli, zakovatli va hushyor bek edi, Yomonlarga (misli bir) olov, yovga ofat edi. Yana bahodir, g‘ururli, qilmishlari rost edi, Bu fe‘l-raftorlari uni kundan kunga yuksaltirdi... El va zamona ishlarini o‘zi bajo keltirdi va tuzdi, U yana sara kishilarni istar edi.	So‘z boshi Kuntug‘di elig to‘g‘risida
15.	Ushbu parcha qaysi qahramon haqida? Ey baxtli elig, Qullik oti bu xizmat bilan yarashiq bo‘ladi. Uzoq yo‘l yurib sening dargohingga ahd qilib keldim, Orzu -umidlarim qonib, endi (bugun) tilakka yetdim...	Oyto‘ldi

16.	Elig "Tilagidagicha sanalgan kishi topdi" fikr kim haqida?	Oyto'ldi
17.	"Ey, shoshqaloqlik kishi uchun yaramasdir." fikr kim tomonidan kimga qarata aytilgan?	Kuntug'di Oyto'ldiga
18.	Agar bekka yaqin bo'lsang, o'zingga juda ehtiyot bo'l kim tomonidan aytilgan?	Kuntug'di
19.	Oyto'ldi nimaga o'zini o'xshatadi?	To'pga
20.	Qaysi qahramon o'zini ko'r kishiga o'xshatadi?	Oyto'ldi
21.	Otang yoki onang senga aytmagan edimi, Ey o'g'lim, o'zingni begingga teng qilma, deb degan fikr kimga aytilgan?	Oyto'ldiga
22.	Mening barcha qilmishlarim jafu, menga ishonma degan obraz kim?	Oyto'ldi
23.	Oqar suv, ravon til, baxt-davlat bir yerda turmaydi. Jahon kezuvchilar yurib tinmaydi. Baxt-davlat ishonchsiz, bevafo, qo'nimsizdir, Yurib ketayotib to'satdan uchadi, uning oyog'i tayg'anchiqdir. "Qutadg'u bilig"ning qaysi qismidan olingan?	"Oyto'ldi eligga davlat sifatini ko'rsatadi" Oyto'ldi aytgan.
24.	Oyto'ldi deb atalishingning boisi nimada?..	Mening otimni, Dono (kishi) qiliqlarimni oyga nisbat berib atagan.
25.	Oy tug'(il)ganda, dastlab, u juda kichik tug'(il)adi, So'ng kundan kunga ulg'ayadi, yuqori ko'tariladi. Oy to'lin bo'lsa, to'lishsa olamni yoritadi, Jahon xalqi undan ro'shnolik topadi. Kim haqida	Oyto'ldi
26.	Oy tugal to'lishib eng balandga ko'tarilgach, ko'rgin, Yana yemirila, kamaya boradi, yuz chiroyi ketadi. Yorug'ligi kamayadi va yana mahv (yo'q) bo'ladi, Qayta tug'(il)gan kechasidan boshlab oz-ozdan yana to'lishadi.	Mening o'zim ham shu (oy) sifatlidirman Oyto'ldi.

27.	Goho paydo bo‘laman, goho mahv bo‘laman deb o‘z sifatlarini eligga ko‘rsatgan obraz qaysi?	Oyto‘ldi.
28.	Oyto‘ldi yerga to‘p ustida o‘tirishini qanday izohlaydi?	To‘p (koptok) (bir barqaror) o‘rinsiz dumalab yurgani kabi men (ya'ni davlat) ham uning kabi (o‘rinsiz) kezaman” deb aytadi.
29.	qosh-qovog‘ini solgan, yuzini burishtirgan (edi). Kumush kursi qo‘yib ustida o‘ltirardi. Bu kursining oyog‘i uch ayrilik edi. Qo‘lida ulkan bir pichoq tutgan, So‘l tomonida – urog‘un (dori), o‘ngida esa shakar (sharbat). Kimning tasviri berilgan?	Elig (Kuntug‘di) hukmdor
30.	Oyto‘ldi Eligga Sening kumush kursi qo‘yishingning sababi nima? Bu qanday o‘tirish, qanday kursi, sen uchun o‘tirish joyi bo‘ldi? Buning ma‘nisi nima? Aytib ber, men uqayin!	Barcha uch oyoqli narsa siljimas bo‘ladi, Har uchalasi (poyalari) barobar, qimirlamaydigan bo‘ladi. Agar uchala poyadan birortasi og‘sa, siljisa, Qolgan ikkalasi ham siljiydi, u kursi yiqiladi. Barcha uch poyali (oyoqli) narsa to‘g‘ri va rost turadi, Agar to‘rt (poyali) bo‘lsa, ko‘rgin, biri egri bo‘ladi
31.	Qaysi narsa to‘g‘ri bo‘lsa, uning butun borlig‘i chiroyli bo‘ladi, Ko‘rolsang, barcha chiroyli (narsa)ning qilmishlari rost bo‘ladi. Kim aytadi?	Elig Oyto‘ldiga
32.	Mening qiliqlarimni ko‘rgin, u og‘mas, to‘g‘ridir, Xoh to‘g‘ri, xoh egri bo‘lsin, hukm chiqarish paytida. Kimning ta‘rifi va sifati berilgan?	Hukmdor elig Kuntug‘di.
33.	Kuntug‘dining qo‘lilida turgan pichoq nimaning belgisi nimada izohlang.	Qirquvchi va kesuvchi bir narsadir, ey unib-o‘suvchi. Pichoqdek kesaman, ishlarni bichib tashlayman.

34.	Sharbat nimani ifodalaydi?	<p>Da'vo-tuhmat qiluvchi kishi (ishini) uzatib, cho'zib o'tirmayman.</p> <p>Shakarni shu kishi yeydiki, unga mabodo zulm o'tgan bo'lsa, Va dargohimga kelib mendan haq-adolat topsa.</p> <p>U kishi shakardek chuchuk bo'lib [ya'ni shod bo'lib] ketadi, Sevinchga to'ladi va xursand bo'ladi.</p>
35.	Urog'un (bir xil dori)ni qanday kishi(lar) ichadi	<p>O'zi zo'ravon-zolim va to'g'rilikdan qochadigan bo'lsa. Xoh o'g'lim bo'lsin, xoh yiroq, xoh yaqin kishim bo'lsin, Xoh chaqmoq kabi o'tkinchi mehmon bo'lsin.</p> <p>Adolat borasida har ikkalasi men uchun birdek, Hukm buyurishda ular meni o'zgacha ko'rmaydi.</p>
36.	Oyto'ldi yana aytdi: (Ey) baxtiyor elig, Nima sababdan eligning oti Kuntug'di bo'ldi?	<p>Dono mening qiliqlarimni Ko'rib, majoziy qilib, menga ushbu otni qo'ydi. Kunga boqqin, hech kamaymaydi, faqat to'lin bo'lib turadi.</p>
37.	Kuntug'dining sifatlarini sanab bering 3 ta	<p>To'g'rilik bilan yetildi, to'ldi, kamaymadi.</p> <p>Ikkinchidan, kun tug'adi, olam yorug' bo'ladi,</p> <p>U yorug'ligini hammaga yetkazadi, o'z-o'zicha yo'qolmaydi.</p> <p>Mening ham qoidam (odatim) shunday, o'zim yo'qolmayman,</p> <p>Fe'lim va muomalam barcha xalq uchun birdekdir.</p> <p>Uchinchidan, agar kun chiqsa yerga issiqlik beradi,</p>

		Undan tuman ming turli gul ochiladi. Mening adolatim qaysi bir elga yetsa, U el barchasi yashnaydi, garchi tosh, qoya bo'lsa ham. Tuqqan kun (chiqqan kun) yaxshi yoki yomon demaydi, Barchaga birdek nur sochadi, o'zi kamaymaydi.
38.	Fe'lim va muomalam barcha xalq uchun birdekdir. Kim tomonidan aytilgan?	Kuntug'di
39.	Qutadg'u bilig asarida bilimli so'z nimaga o'xshatilgan?	Inju
40.	Xudoga sig'indim, o'zim(ni) unga bag'ishladim, Bu din bilan imonimni egam asrasin. Tomog'imga, ustimga hamma narsalarim yetadi. Endi nima kerak, bundan bu yog'iga (ular) menga yuk bo'ladi. Tomoqqa yegulik ham eginga kiygulikni Xudo mendan surishtirmaydi [meni yegu, kiygudan qismaydi] kim tomonidan aytilgan?	O'zg'urmish
41.	O'zg'urmish eligdan 4 narsa so'raydi qaysilar?	1) Nuqsonsiz tiriklik 2) Qariliksiz yigitlik 3) Doim dard-u kasalsiz esonlik 4) Boyitgin, hargiz bo'lak kambag'al qilma
42.	Nima uchun eligga O'zg'urmish Aziz jonni bag'ishlab o'zimni qul qilayin. Beparvo bo'lib yuruvchi orzu quli, O'limga bosqin bo'lma, (u) olgani keladi.	To'rt narsani menga bajo qil
43.	Agar tiriklikni behuda o'tkazgan bo'lsang, Afsus bilan tun-u kun uxlama, faryod qil. Har doim tiriklikni istab topib bo'lmaydi, Yigitlik kuchi yana qaytib kelmaydi.	O'zg'urmish
44.	Otangni, onangni o'lim qo'ymadi,	

	Vaqtı kelsa seni qo‘yadimi, ko‘r... Kim aytgan?	
45.	Manfaatsiz odamlar odam(lar) orasida zarardir, Manfaatli odamning manfaati elga tegadi.	O‘zg‘urmish O‘gdulmishga
46.	«Qutadg‘u bilig» so‘zining ma‘nosini ayting?	Qut (saodat, baxt) keltiruvchi bilim demakdir.
47.	Qaysi asarning maydonga kelishi nihoyatda kuchli hayotiy zarurat va ma‘naviy ehtiyoj bilan bog‘liq. Ijtimoiy-siyosiy maydonda arablar hukmronligining yemirilishi va mahalliy mustaqil davlatlarning qaror topishi uning ma‘naviy asoslarining ham yangilanishi va mustahkamligini taqozo etar edi. U o‘sha paytdagi Qoraxoniylar davlatining falsafiy-axloqiy yo‘riqnomasi sifatida paydo bo‘lgan.	«Qutadg‘u bilig»
48.	Qaysi sar voqealari unchalik murakkab emas. Ular ramziy qahramonlarning hayotiy faoliyati va ularning o‘zaro suhbatlari asosiga qurilgan.	«Qutadg‘u bilig»
49.	Podsho o‘z adolati, qonun ustuvorligi, yurt osoyishtaligi, farovonlikni ta‘minlagani bilan shuhrat qozonadi. Fikr kim haqida	Kuntug‘di.
50.	Donishmand yigit bu ovozalarni eshitib, elig huzuriga xizmat uchun keladi. Fikr kim haqida ekanligini aniqlang.	Oyto‘ldi
51.	«Qutadg‘u bilig»da mamlakat boshlig‘i – hukmdor nima deb ataladi?	Elig yoki bek
52.	Qutadg‘u bilig asarining qahramonlarini sanab ularga ta‘rif bering.	Asarda to‘rtta yetakchi qahramon bor: Kuntug‘di – elig (hukmdor) – Adolat timsoli.

		Oyto'ldi – vazir – Davlat timsoli.
		O'gdulmish – vazirning o'g'li (otasining vafotidan keyin vazir) – Aql timsoli.
		O'zg'urmish – Oyto'ldining uzoq qarindoshi, zohid – Qanoat (ofiyat) timsoli.
53.	Yusuf Xos Hojib kimni «qilmishlari to'g'ri, fe'l-u raftori rost, tili chin, yetuk, ko'zi va ko'ngli boy, bilimli, zakovatli, hushyor, yomonlarga misli bir olov edi» deb ta'riflaydi?	Kuntug'di.
54.	“Qutadg'u bilig” asarida kimni “vazir, ayni paytda Davlat ramzi” deb ta'riflanadi?	Oyto'ldi
55.	To'p, kiyik, qilich, zahar solingan idish, shakar, Oy va Quyosh sayyorasining harakatlanish jarayonlari qaysi obrazlar faoliyatida ramziylik ma'nosini ifodalagan?	Kuntug'di va Oyto'ldi
56.	Qaysi qahramon ezgu kishi hech qachon o'z tabiatini o'zgartirmaydi, chunki yaxshi qiliq oq sut bilan kirsar, o'lim kelib tutmaguncha o'z tarzini buzmaydi, deb uqtiradi.	Kuntug'di
57.	“Qutadg'u bilig”da Adolatning qarshisidagi eng yaramas illatlar qaysilar?	Qonunni buzish, yolg'onchilik, suqlik, zo'ravonlik, uyatsizlik, andishasizlik, ish ustida g'azabkor bo'lish, boshqalarga naf bermaslik, badmastlik, egri qo'llikdir.
58.	U butun umrini el-yurt ishiga, mamlakat ravnaqiga, yurtda tinchlik, osoyishtalik va farovonlikni yuksaltirishga sarflaydi.	Oyto'ldi

	Ammo voqealar davomida vafot etadi. Fikr qaysi qahramon haqida ?	
59.	Oyto'ldining vafoti nimaga ishora qiladi?	Davlatning bebaqoligiga
60.	“Qutadg'u bilig” asardagi eng faol qahramon. U – Oyto'ldining o'g'li.	O'gdulmish
61.	O'g so'zining ma'nosi nima?	Aql, aql-idrok
62.	O'gdulmish so'zining ma'nosi nima ?	«Aql bilan ziynatlangan» demakdir.
63.	O'gdulmish Elig bilan savol-javoblarda turli-tuman kasb-hunar, amal-martaba egalarining fazilatlari haqida gapiradi. Shularni sanab bering?	Bek, vazir, elchi, kotib, xazinachi va boshqalar
64.	Yusuf Xos Hojib davlat qanday boshqarilishi kerak egan raziy ifodani qanday izohlagan?	«Davlat Adolat va Aql bilan boshqarilmog'i kerak»
65.	Xudo berdi qulga ikki ko'z, quloq, Ular bilan dunyo, oxiratga boq. Ushlash uchun berdi yana ikki qo'l, Biri dunyo, biri oxiratga yo'l. Ikki oyoq berdi yana yurishga, Biri u yon, biri bunda turishga. Kimga kim tomonidan aytilgan?	O'gdulmish O'zg'urmishga
66.	O'zg'urmish so'zining ma'nosi	«hushyor qiluvchi», «sergaklantiruvchi» degani.
67.	Kimning zohid qiyofasida ko'rinishida shu ma'noga uyg'unlik bor. U behuda ishlar bilan band bo'lish, har xil maydachuyda orzu-havaslariga ovunib umrini behuda o'tkazib yuborishdan ogohlantiradi. Mudrab borayotgan tuyg'ularni sergaklantiradi.	O'zg'urmish
68.	Qaysi qahramon o'quvchini Dunyoda faqat davlat yoki aql bilan bitirib bo'lmaydigan ishlar ham borligidan, inson ko'nglida nozik tuyg'ular mavjlanib turishidan xabar beradi, shu	O'zg'urmish

	tuygʻularga beparvo boʻlmaslikka undaydi, umrni behuda oʻtkazmaslik uchun hushyorlikka chaqiradi.	
69.	«Sen tansiq taomlarni, men esa oddiy arpa oshni yeymiz. Uxlab tursak, ikkimiz ham och qolamiz. Shunday ekan, bunday ovqatlarga ruju qoʻyishning nafi yoʻq. Sen kimxoblarga oʻralib yurasan, men esa dagʻal yungdan tikilgan toʻn bilan kifoyalananaman. Ertaga oʻlim kelsa, ikkimiz ham yalangʻoch ketamiz-ku!» Demak, tanni emas, ruhni boyitish lozim. Yuqoridagi fikr kim tomonidan kimga qarata aytilgan?	Oʻzgʻurmish Ogʻdulmishga
70.	Bu qahramon – taqvodor kishi. U din va diyonatni hamma narsadan ustun koʻradi. Uning uchun yaxshi kiyim, tansiq taom, har xil oʻyin-kulgilar ketidan borish umrni shamolga berish bilan barobardir. Uning fikricha, inson oʻz qalbini boyitishi, vujudini har xil illatlardan forigʻ qilishi kerak. Buning yoʻli esa maʼrifatdir. Taʼrif kim haqida?	Oʻzgʻurmish
71.	Juda aziz, axir tiriklik kuni, Bekor ishga sarflab boʻlmagay uni. Kimga kim tomonidan aytilgan?	Oʻzgʻurmish Kuntugʻdiga
72.	U mushohadali, qatʼiy fikrli inson. Elining shaharga kelish haqidagi taklifini rad etadi. Garchi bu taklif necha marta takrorlansa-da, oʻz fikrini oʻzgartirmaydigan obraz kim?	Oʻzgʻurmish 3 marta
73.	Kim «men turkcha soʻzlarni yovvoyi togʻ kiyigi singari deb bildim, shunga qaramay, ularni avaylab-asrab qoʻlga oʻrgatdim», – deb yozadi.	Yusuf Xos Hojib
74.	Yoy obrazi adabiyotimiz tarixida eng koʻp qoʻllangan obrazlardan	Mumtoz adabiyotimizda (adabiy anʼanalar

	biridir. An'analar natijasida qanday ma'noda izohlanadi?	natijasi sifatida) uning ko'proq arab alifbosidagi shu nomli harf bilan bog'langanini ko'ramiz. Qiyinchilikka duch kelgan qahramon, ma'shuqa ishqida o'rtanayotgan oshiq ko'pincha qaddini yo yoxud dol qiladi. Ularning yoy-kamon bilan aloqasi nisbatan kam kuzatiladi.
75.	«Qutadg'u bilig»dagi yoy obrazi esa «Devonu lug'ot at-turk» hamda qadimgi yozma manbalardagi, shuningdek, xalq og'zaki ijodidagi qaysi so'z bilan bog'lanib ketadi?	Kamon
76.	Bo'dum erdi o'qteg, ko'ngul erdi ya, Ko'ngul qilg'u o'qteg, bo'dum bo'ldi ya. O'zbek tilidagi tabdilini ayting.	Qaddim o'qteg (to'g'ri), ko'nglim esa yoy (dek shay) edi, Ko'ngil orzulari hanuz o'qdek, (lekin) qaddim yoy bo'ldi.
77.	Shoir bu yerda yoshlikni, kuch-shijoatli davrni qad misolida...qa, ko'ngilni esa ...ga tashbeh beradi tushib qolgan so'zni aniqlang.	o'q yoy
78.	Yuzning o'xshatilishi	Mazmuni
79.	Suyak	Suyak or-nomussiz kishiga nisbatan qo'llanadiki, bu bilan shoir uning hech kimga keraksizligi, tashlandiq narsa barobaridagi shaxs ekanini uqtiradi.
80.	Oy	Sharq adabiyotida yuz go'zalligining (umuman, go'zallikning ham) ramzidir.
81.	Osh	Yuzning oshga o'xshatilishi kishi tashqi ko'rinishining yoqimlilikig a ishora.
82.	Arg'uvon	qizil yuz timsoli. Qizil yuz esa go'zallikning o'ziga xos «o'lchov birligi»dir.

83.	Bo'z	Bo'z qo'rqib ketgan yoxud noqulay ahvolda qolgan odam yuzining belgisi sifatida keladi.
84.	Lashkarboshining sifatlarining tashbehi	
85.	O'xshatish nomi	Mazmuni (izohi)
86.	Arslon	Lashkarboshining kuchliligi, yovga dahshat solishi
87.	Zag'izg'on	doimiy hushyorligi
88.	Qoplon	baquvvatligi
89.	To'ng'iz	hujumkorligi va dushmanga hamlasi
90.	Bo'ri	mardonavorligi
91.	Tulki	Jang taktikasidagi mohirligi, hiyla va tadbirkorligi
92.	Ayiq	Shiddati
93.	Qo'tos va tuya erkagiga	Qasoskorligi
94.	Ukki – boyo'g'li	tunlari hushyor va bedorligi
95.	O'xshatishlar	Nomi
96.	Yuz	Oy
97.	Tiriklik(hayot)	Rabot
98.	Yigitlik	Arg'umoq
99.	Bilim	Kimyo , mash'ala
100.	So'z	Shakar yo zahar
101.	Ko'ngil	Shisha, dengiz
102.	Bo'ri	Zolim amaldor
103.	Xalq	Qo'y
104.	Bek	Qo'ychivong
105.	Tun Istiora	Qora yuz bog'i , zangi yuzi, sevuglar qoshi, qora soch bo'dug'i, qora ko'ylak, zog' rangi, habash qirtishi (qiyofasi), tul to'ni, qunduz terisi
106.	Quyosh	Rumiy qizi, sata (marjon), sata qalqoni (marjon shodasi), yorug' yuz, sara qiz yuzi
107.	Darslikdagi “Qutadg'u bilig” asaridan olingan parchani kim o'zbek tiliga she'riy yo'l bilan tabdil qilgan?	Q. Karimov